

Yangi O'zbekistonda qayta bunyod bo'layotgan Do'stlik

Vatan tarixi faqat sanalar bilan yozilmaydi. U xalq taqdirida, insonlarning orzu-umidlarida, ona zaminda qad rostlagan shahar va qishloqlar qiyofasida, avloddan avlodga o'tib kelayotgan xotira va qadriyatlarda yashaydi.

Shu ma'noda O'zbekiston davlat mustaqilligining 35 yilligi shunchaki tarixiy sana emas. Bu — xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilab, milliy g'urur va qadr-qimmatini qayta tiklab, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, yangi hayot va yangi jamiyat barpo etayotganining 35 yillik faxrli ifodasidir.

Bu yillar O'zbekistonning har bir go'shasi, har bir shahri va qishlog'i, har bir mahallasi taqdirida o'chmas iz qoldirdi.

Jumladan, Do'stlik tumani taqdirida ham.

Do'stlik... Bu nomning o'zida mehr-oqibat, samimiyat, totuvlik va bag'rikenglik mujassam. Go'yo bir vaqtlar bu zaminga ana shu nomni bergan insonlar uning kelajak taqdirini oldindan his qilgandek. Zero, qadimdan bu maskan turli millat va elat vakillarini bir oilaning farzandlaridek birlashtirib kelgan. Bu yerda mehnat qadriyat, qo'shniçilik ezgulik, tinçlik va totuvlik esa eng katta boylik hisoblangan.

Do'stlik — inson irodasi, matonati va mehnati bilan Mirzacho'lning keng va saxovatli bag'rida qad rostlagan diyordir.

Bu zamin tarixiga nazar tashlasak, uning deyarli har bir qarichida insonning bunyodkor mehnati izlarini ko'rish mumkin. Bir vaqtlar yuzlab, minglab insonlar bepoyon cho'llarga yangi hayot baxsh etish, yerlarni o'zlashtirish, bog'lar barpo etish, shahar va qishloqlar qurish uchun tinimsiz mehnat qilganlar. Ular turli millat vakillari edilar, ammo ularni bir maqsad — bu zaminni obod qilish, farzandlarini shu yerda voyaga yetkazish va kelajakni bunyod etish maqsadi birlashtirgan.

Ana shunday mehnat, jasorat va hamjihatlik tufayli 1970-yilda Do'stlik tumani tashkil etildi. Bu sana uning tarixida yangi sahifani ochdi.

Yillar o'tdi. Dalalar va qishloqlar kengaydi, yangi aholi punktlari paydo bo'ldi, ijtimoiy obyektlar qad rostladi. Do'stlikning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati izchil yuksalib bordi. 1983-yilda Do'stlik aholi punktiga shahar maqomining berilishi tuman hayotidagi muhim tarixiy voqealardan biriga aylandi.

Biroq Do'stlikning haqiqiy qiyofasini, bugungi taraqqiyoti va insonlar hayotidagi ulkan o'zgarishlarni mustaqillik yillaridan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Mustaqillik Do'stlikka o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan yagona bir maromda bunyod etish imkonini berdi.

O'tgan 35 yil davomida tumanimiz hayotining barcha sohalarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Kechagi Do'stlik bilan bugungi Do'stlikni taqqoslasak, shu yillar davomida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarining ko'lami va mazmuni yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Yo'llar o'zgardi. Mahallalar o'zgardi.

Ammo eng muhimi — insonlarning hayotga munosabati o'zgardi, ularning ertangi kunga ishonchi mustahkamlandi. Ayniqsa, so'nggi yillarda hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev

rahnamoligida «Inson qadrini ulug‘lash uchun» ezgu tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar tumanimiz hayotiga yangi mazmun va yangi sur‘at baxsh etdi. Islohotlarni har bir mahallaga, har bir xonadonga, har bir inson taqdiriga yetkazish ustuvor vazifaga aylandi.

Bugun Do‘stlik mahallalariga kirib kelgan inson bu o‘zgarishlarni, avvalo, quruq raqamlarda emas, balki odamlar hayotida ko‘radi.

Bu o‘zgarishlar ravon yo‘llar va obod ko‘chalarda, yangilanayotgan xonadonlarda, zamonaviy maktab va bog‘chalarda, tibbiyot muassasalarida, o‘z biznesini boshlagan tadbirkorning ishonchida, kasb-hunar egallayotgan yoshning orzularida, farzandlarining kelajagi haqida umid bilan o‘ylayotgan ota-onalar nigohida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi Do‘stlikning haqiqiy qiyofasi aynan shunda aks etadi.

Bugun mahalla shunchaki odamlar yashaydigan hudud emas. U inson taqdiri hal qilinadigan, uning dardi tinglanadigan, muammolariga yechim izlanadigan va tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanadigan maskanga aylandi. «Mahalla yettiligi» faoliyati ham aynan mana shu ezgu maqsadga — inson bilan bevosita ishlash, uning tashvishlarini yengillashtirish va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Bu zaminda har bir mahalla, har bir ko‘cha, har bir xonadon Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida yashamoqda. Hurmatli Prezidentimiz ta’kidlaganidek, «Biz mas’uliyatli mehnatimiz bilan boshqalarning hurmatiga sazovor bo‘lamiz» degan ezgu g‘oya bugun hayotimizning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Men bu fikrning shunchaki so‘z emasligini, balki bir jumlagi rahbar mas’uliyatining butun mohiyatini jamlagan, eng aniq tarozida ham o‘z salmog‘ini yo‘qotmaydigan oltin formula ekanini chuqur angladim. Zero, rahbarning haqiqiy qadri uning lavozimi bilan emas, balki xalq uchun qilgan aniq ishlari, insonlarning tashvishlarini qay darajada yengillashtirayotgani va jamiyat ishonchini qay darajada oqlayotgani bilan belgilanadi.

Buning yorqin tasdig‘ini nafaqat Do‘stlik tumanidagi keng ko‘lamli bunyodkorlik va o‘zgarishlarda, balki butun O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi tobora yuksalib borayotgan nufuzida ham ko‘rishimiz mumkin. Bugun mamlakatimiz tinchlik va barqarorlik, izchil islohotlar, iqtisodiy o‘rish, keng ko‘lamli bunyodkorlik va ochiq siyosat tufayli dunyo davlatlarining hurmati va ishonchini qozonmoqda. Bu yuksak e’tirofning zahirida xalqimizga xos halol, fidokorona va mas’uliyatli mehnat mujassam.

Bugun, mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida Do‘stlik tumani bosib o‘tgan yo‘lga nazar tashlar ekanman, yana bir bor shuni his qilamanki, har bir qurilgan maktab, har bir obod mahalla, har bir yangi ish o‘rni, insonlar yuzidagi ishonch va mamnunlik — ana shu buyuk g‘oyaning amaliy ifodasidir.

Men uchun Do‘stlik tumanining har bir mahallasi o‘z qiyofasiga, har bir ko‘chasi o‘z nafasiga, har bir xonadoni o‘z orzu va intilishlariga ega ekanini ochiq aytish katta sharafdir. Ularning barchasini birlashtirib turuvchi eng buyuk kuch esa Vatanga muhabbat, tinch va osoyishta hayot uchun shukronalik hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga daxldorlik tuyg‘usidir.

Bugungi kunda Do‘stlik tumanida 24 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Ammo tuman xalqining dasturxoni bir, ezgu niyatlari bir, Vatani esa yagona. Ularning farzandlari bir maktabda ta’lim oladi, bir mahallada ulg‘ayadi, bir osmon ostida orzu qiladi va yagona Vatan — O‘zbekiston ravnaqi yo‘lida voyaga yetadi.

Shu ma'noda Do'stlik tarixi — faqat bir tumanning tarixi emas. Bu — inson va zamin, mehnat va matonat, do'stlik va birlik tarixidir. Mustaqillikning 35 yilligi esa ana shu tarixning eng sharaflı sahifalaridan biridir.

Siz qo'lingizda tutib turgan ushbu kitob-albomni tayyorlashdan asosiy maqsadimiz — bosib o'tgan yo'limizga yana bir bor nazar tashlash, kechagi kunni bugungi kun bilan bog'lash hamda mustaqillik yillarida Do'stlik zaminida yuz bergan bunyodkorlik va yangilanish jarayonlarini tarix sahifalariga muhrlashdir.

Uning har bir sahifasida Do'stlikning kechagi va bugungi qiyofasi, har bir suratida esa inson mehnati, taqdiri va orzusi aks etgan. Zero, tarix xotira bilan yashaydi. Xotira esa shukronalikka undaydi. Shukronalik bor joyda Vatanga muhabbat, kelajakka ishonch va yangi marralar sari intilish yashaydi.

Bugun ortga nazar tashlar ekanmiz, bosib o'tgan yo'limiz bilan faxrlanamiz.

Ammo yutuqlarimiz qanchalik salmoqli bo'lmasin, biz ishonamiz: Do'stlik tarixining eng yorqin sahifalari hali oldinda.

Chunki bu zaminning eng katta boyligi, hurmatli Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «uning mehnatkash, mard, saxovatli va bunyodkor xalqidir». Shunday xalq bor ekan, Do'stlikda bunyodkorlik to'xtamaydi. Taraqqiyot davom etadi. Avlodlar almashadi, yillar o'tadi, yangi tarix yaratiladi.

Ammo bir haqiqat abadiy qoladi: **Mustaqillik — bizning eng buyuk ne'matimiz. Do'stlik esa mehr, totuvlik va bunyodkorlik mujassam bo'lgan buyuk Vatanimizning aziz bir bo'lagidir.**

Shavkat DARVISHEV,
Jizzax viloyati Do'stlik tumani hokimi,
«Do'stlik» ordeni sohibi